



**ANALYSIS OF APPLICATION TECHNOLOGY OF RIBANA KNITTED FABRIC IN THE
DETAILS OF PRODUCTS ON THE BASIS OF ANALYSIS OF COMBINED OUTERWEAR
ASSORTMENTS "**

Dadajonova Mashhura Qurbonali Qizi

Namangan Institute of Engineering Technology "Light Industry Products
Construction and Technology" Department 2nd Year Master's Student

Assistant of The Department of Light Industry Technology, Fergana Polytechnic Institute

Tel: +99893 972 68 00 E-Mail: mashhuradadajanova8@gmail.com

Rakhmonova Malokhat Mirkomilovna

Assistant of The Department of Light Industry Technology,

Fergana Polytechnic Institute

Tel: +99899 049 01 21

Dadajonova Diyorahon Qurbonali Qizi

He is A 3rd Year Student at The Fergana Polytechnic Institute,

Faculty of Light Industry and Textiles

tel: +99894 648 47 44

Annotation

Three articles analyze the application, transfer methods, technological processes in the details of the outerwear neck, sleeve tip, pocket shears in the range, which combines "Ribana" knitted fabric with high shape retention properties.

Keywords: glad, jeans, flannel, model, analysis, knitwear, combination, raw material, model, durability, marketing, brand, fittings.

Annottatsiya: Ushbu maqolada shakl saqlash hususiyati yuqori bo'lgan "Ribana" trikotaj to'qimasini kombinatsiyalashgan assortimentdagi ustki kiyim bo'yin o'mizi, yeng uchi, cho'ntak qirqimlari detallarida qo'llash, ishlov berish usullari, texnologik jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: glad, jinsi, flanel, model, analiz, trikotaj, kombinatsiya, hom-ashyo, model, mustahkamlik, marketing, brend, furnitura.

Аннотация

В трех статьях вершиной ассортимента трикотажа Рибана, обладающего высокими сохраняющими форму свойствами, являются вырез горловины, кончик рукава, стрижка с карманом и трикотаж.

Ключевые слова: рад, джинсы, фланель, модель, анализ, трикотаж, комбинация, сырье, модель, долговечность, маркетинг, бренд, фурнитура.



Introduction

Kiyim tikishning texnologik jarayoniga detallarni birlashtirish, ularga kerakli fizik -mexanik xususiyatlarni berish, har xil ishlov berish usullarini tanlash va mahsulotni sifatini nazorat qilish kiradi. Kiyim detallari asosiy va mayda detallarga bo'linadi. Mayda detallar manjet, adiplar, bort qismlarini o'z ichiga olib, kiyimda asosan bezak sifatida foydalaniladi.

Ribana matosida ijobiy sifatlar juda ko'p bo'lib, 100% paxtadan, tabiiy ip gazlamalardan, lastik-laykra, poliester yoki viskoza (5% ga yaqin) qo'shilgan paxtali mato. Ribana ikki tomonlama material hisoblanib, teskari tomonga ega emas. Materialning orqa va old halqalari 1*1, 1*2, yoki 2*2 nisbatda birin ketinlikda ko'ndalaninga to'qiladi. Ishbu matoning asosiy sifatlari - yaxshi cho'ziladi, shakl saqlaydi. Kiyimlarning bo'yin qismiga ishlov berish, manjetlar tikish, kamarlar va beykalar tayyorlashda qo'llaniladi.

Zamonaviy ustki kiyimlar assortimentlari bir-biridan quyidagicha farq qilib, yilning asosan kuz, qish, hamda baxor mavsumlarida inson uchun kundalik kiyim sifatida qo'llaniladi:

Bomberi-sport uslubidagi erkaklar hamda ayollar ustki kiyim turi bo'lib, kiyimning manjetlari va pastki qismida elastik tasmalar bilan ishlov berilgan. Kurtkalar zamonaviy "grunge" uslubining ajoyib elementi hisoblanadi. Ko'pincha ular metall tugmachalar, zanjirlar bilan bezatilgan(1-a,b, rasmlar).



1-a, b rasmlar. Bomberi

Windbreakers

– baxor-kuz mavsumi uchun eng qulay kiyim varianti. Ular odatda yomg'irli mavsumlarda kiyilib, asosan plashlik, charm, zamsha, gazlamalaridan kombinatsiyalashtirilib tikiladi.

Mavsumiy ustki kiyimlar ishlab chiqarishda trikotaj to'qimalaridan - asosan kiyim detallarida qo'shimchalar sifatida keng ko'lamda qo'llaniladi. Xususan, turli xil paltolar, kurtkalar, vitrovkalarni tikish uchun kashmir, bukle, tvid, bo'ston, gabardin, zamsh, charm, bolonya, neylon, denim, plashlik gazlamalardan tayyorlanadi. Turli hil gazlamalardan kombinatsiyalashtirgan holda kiyim ishlab chiqarishda ribana trikotaj to'qimasidan yeng uchlarida manjet, cho'ntak qirqimlarida listochka sifatida qo'llash mumkin(1-jadval).



1-jadval

№	Detal nomi	Ko'rinishi
1	Yoqa	
2	Yeng uchlarida manjet	
3	Etak qirqimlarda manjet	










Ribana trikotajdan turli xil kiyimlar: bolalar kiyimlari, shimlar, yubkalar, sport kiyimlari, o'smirlar ustki kiyimlar, pijamalar, uy uchun to'plamlar, tikish uchun ishlatiladi.

Ribana Trikotaj Turlari Hamda Qo'llanilish Texnologiyasi

Ribana trikotaji yumshoqligi, elastikligi, g'ijimlanmasligi, yengilligi, oson yuvilishi bilan boshqa to'qima matolardan ustun bo'lib, tarkibida paxta ipi, jun, ipak va kimyoviy tola aralashgan iplardan to'qilgan xillariga ko'ra turli kiyimlar tayyorlashda foydalaniladi. Trikotaj assortimentlarini turini ko'paytirish, jihozlarning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, mahsulot shakl saqlash xususiyatini oshirish maqsadida turli hil o'rilishdagi trikotajlar yaratilib, ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda(1-jadval).



(-jadval)

Kiyimlarda qo'llanilishi	Trikotaj ko'rinishi	O'rilish strukturasi
		
		
		

Erkaklar va ayollar ustki kiyimini tikishda kiyimdagi mayda detallar, ya'ni cho'tak qopqoq, bandlar, kamar tutgich, belboq va manjetlar kabi har bir detallarga alohida ishlov berib olinadi. Hususan, kombinatsiyalashgan ustki kiyimlarda ribana trikotajli manjet, hamda beykalarga ishlov berish texnologiyasi tadqiq qilindi(-jadval).



-jadval

№	Manjetga texnologik ishlov berish	Beyka va yoqaga texnologik ishlov berish ketma-ketligi	Yeng uchiga texnologik ishlov berish ketma-ketligi
1			
2			
3			

Raqobatbardosh mahsulotlar korxonalarining jahon bozoridagi o'rnini oshirishda muhim hisoblanadi. Buyum modeli mukammal ko'rinishga ega bo'lishligi bilan ekspluatatsiya jarayonida sifatini yaxshi saqlay olmasa, unga bo'lgan talab kamayishi muqarrar. Bularning oldini olish uchun tayyor mahsulot sifatini oshirib, raqobatbardoshligini ta'minlash lozim.

Tikish texnologiyasining takomillashtirish, kiyim konstruktsiyasining o'zgarishi yoki gazlama xususiyatlarining o'zgarishi natijasida ishlov berish jarayoni tartibi o'zgarishi mumkin. Gazlamaning xili, ishlov berish usuli va mavjud jihozlarning turiga qarab biriktirish choklarining qirqimlariga ishlov berish turlicha bo'ladi (-jadval).



-jadval

No	Qirqinga ishlov berish turi	Qirqim sxemasi	Izoh
1	Ishlov berilmaydigan qirqim		Kiyim detallarini choklarda ishlatiladi
3	Maxsus mashinada yo'rmash		Ustki kiyim va ko'ylak qirqimlarida ishlatiladi

Buyum sifatini oshirishda ishlatiladigan materiallarning fizik-mexanik ko'rsatkichlari standart talablarga javob berishi lozim. Materiallarning sifatli tayyorlanishiga birinchi navbatda ishlatiladigan ip xom – ashyolarining standart talablariga javob berishi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot bunday hususiyatlar tabiiy materiallarda yuqori ekanligi hisobga olib, - paxta, zig'ir, jun – tolali gazlamalar kombinatsiyalangan ustki kiyimlari uchun afzallikga ega matolari tavsiya etgan holda, turli o'rilishdagi ribana trikotaj gazlamasi tanlab olindi. NamMTI sinov laboratoriyasida o'rnatilgan zamonaviy uskunalarda eksperimental-tajriba usulida fizik-mexanik ko'rsatkichlari aniqlash maqsadida yassi fang mashinasida 90% paxta tolasi bilan 10% laykradan, 93% paxta tolasi bilan 7% laykradan, 95% paxta tolasi bilan 5% laykradan olingan lastik trikotaj gazlamalari hamda 50-60 teksli tanda va arqoq kalava iplardan, sarja o'rilishlarda to'qilgan, eni 90 sm, 1 m²gazlamaning massasi 282-340 g bo'lgan na'munalar tanlab olindi Trikotaj matolaridan na'munalar olish GOCT 8844-75 standarti bo'yicha olib borildi. DW-1111 uskunasi yordamida namunalar 100x100 mm o'lchamda qirqib olinib fizik-mexanik hususiyatlari aniqlandi (-jadval).

Ko'rsatkichlar	Tanlangan djinsi gazlama namunalari		
	Variantlar		
	I	II	III
Na'muna yuza zichligi (gr/m ²)	180	148	147
Na'muna qalinligi T (mm)			
Hajm zichligi δ (mg/sm ³)		13.8	13.9
Havo o'tkazuvchanlik B (sm ³ /sm ² ·sek)		296.050	358.410
Uzilish kuchi P (N)	Bo'yi bo'yicha	759	
	Eni bo'yicha	319	
Uzilishgacha cho'zilish L (%)	Bo'yi bo'yicha	47.60	11.5
	Eni bo'yicha		2.0
Qaytmas deformatsiya ε _H (%)	Bo'yi bo'yicha	15.5	22
	Eni bo'yicha	18.5	25
Qaytar deformatsiya ε _o (%)	Bo'yi bo'yicha	15.5	31.5
	Eni bo'yicha	32.5	38.9
Ishqalanishga chidamliligi I (ming. aylana)		55.000	52.400



Ribana – trikotaj to'qimalari orasida afzalliklari yuqori bo'lib, mato juda zich, uning chiziqli zichligi 170 dan 360 g / m² gacha o'zgarib turadi.

Gazlamalarning asosiy afzalligi elastiklik hususiyatidir. Kiyimlar iloji boricha qulay bo'lishi uchun, ular harakatlarga yaxshi moslashishi, tanaga yaxshi mutanosib holda harakatlarga to'sqinlik qilmasligi lozimdir. Gazlamalarning tabiiylik hususiyati sifatli kiyimni ishlab chiqarishdagi iste'molchilar talablaridan eng muhimi hisoblanib, ribana to'qimasi tabiiy paxta ipi hamda laykra ipidan to'qilgan, kerakli o'lchamga yaxshi cho'ziladi va elastiklik shakl saqlash hususiyati yuqori. Namlikni yaxshi shimadi, havoni yaxshi yutadi, termoregulyatsiya ribanadan tayyorlangan kiyimlar asosiy vazifalardan biri bo'lib qishda issiq, yozda salqin. Texnologik ishlov berish qulay,

References

1. <https://igla-tkan.by/2020/03/28/gorlovina-iz-ribany/>
2. http://sdelanomnoy.blogspot.com/2016/06/blog-post_29.html
3. <https://zen.yandex.ru/media/id/5d25cd12ddfef600ad78433a/1-prostaia-matematicheskai-formula-dlia-idealnoi-gorloviny-iz-ribany-601d0fb9d496d267136c0cc3>